



O'ZBEKISTON HUDUDIDA UCHUVCHISIZ UCHADIGAN APPARATLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA HUQUQIY ASOSLAR.

Oppoqxonov Azizxon Akmalxon o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti Xalqaro ommaviy huquq kafedrası katta
o'qituvchisi E-mail: azizxon.9121@gmail.com <https://orcid.org/0009-0004-9154-443X>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda uchuvchisiz uchish apparatlaridan (UUA, dronlar) foydalanishni huquqiy tartibga solishning amaldagi mexanizmlari tahlil qilingan. Normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Vazirlar Mahkamasining 658-son qarori asosida dronlarni olib kirish, saqlash, sotish va ulardan foydalanish bo'yicha belgilangan tartiblar yoritilgan. Maqolada ruxsatnoma olish tizimi, vakolatli organlar o'rtasidagi hamkorlik hamda xorijiy ijodiy guruhlar uchun soddalashtirilgan tartiblarning mazmuni ochib berilgan. UUALar uchun havo hududidan foydalanish talablari va buyurtmanoma berish jarayonlari bosqichma-bosqich ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 244⁴ va 248¹-moddalarida belgilangan javobgarlik choralari tahlil qilingan. Tadqiqotda dronlardan noqonuniy foydalanishning ijtimoiy xavfi va huquqiy oqibatlari yoritilib, mavjud tartiblarni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: uchuvchisiz uchish apparati, dron, huquqiy tartibga solish, ruxsatnoma, havo hududi, xavfsizlik talablari, ro'yxatdan o'tkazish, nazorat tizimi, turizm sohasida qo'llash, javobgarlik, vakolatli organlar.

Annotatsiya: В статье проанализированы действующие механизмы правового регулирования использования беспилотных летательных аппаратов (БПЛА, дронов) в Республике Узбекистан. На основе нормативно-правовых документов, в частности постановления Кабинета Министров № 658, раскрыты установленные правила ввоза, хранения, продажи и использования дронов. В статье рассмотрены система получения разрешений, взаимодействие уполномоченных органов, а также содержание упрощенного порядка для иностранных творческих групп. Поэтапно изучены требования по использованию воздушного пространства для БПЛА и процесс подачи заявок на выполнение полётов. Кроме того, проанализированы меры ответственности, предусмотренные статьями 244⁴ и 248¹ Уголовного кодекса. В исследовании обоснованы социальная опасность и правовые последствия незаконного использования дронов, а также необходимость дальнейшего совершенствования существующих процедур.

Ключевые слова: беспилотный летательный аппарат, dron, правовое регулирование, разрешение, воздушное пространство, требования безопасности, регистрация, система контроля, применение в сфере туризма, ответственность, уполномоченные органы.

Abstract: The article analyzes the current legal mechanisms regulating the use of unmanned aerial vehicles (UAVs, drones) in the Republic of Uzbekistan. Based on



regulatory documents, particularly the Resolution of the Cabinet of Ministers No. 658, the established rules for the import, storage, sale, and use of drones are outlined. The article examines the permission-granting system, the interaction among authorized bodies, as well as the simplified procedure provided for foreign creative groups. Step-by-step requirements for the use of airspace for UAV operations and the process of submitting flight applications are studied in detail. In addition, the article analyzes the liability measures stipulated in Articles 244⁴ and 248¹ of the Criminal Code. The study highlights the social danger and legal consequences of the illegal use of drones, as well as the need to further improve existing procedures.

Keywords: *unmanned aerial vehicle (UAV), drone, legal regulation, permit, airspace, safety requirements, registration, monitoring system, use in the tourism sector, liability, competent authorities.*

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar orasidan “DRON” so’zi juda ko’plab tilga olinyapti. “DRON” so’zi inglizcha “drone” so’zidan olingan bo’lib “asalari” degan ma’noni beradi[1].

Dron - masofadan boshqarish pulti yoki dastur yordamida boshqarilishi mumkin bo’lgan kichik uchuvchisiz uchish apparati. U turli maqsadlarda, jumladan, fotografiya, videografiya, kuzatuv va hatto biron bir narsani yetkazib berish uchun ishlatiladi[2].

Uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) aviatsiya texnologiyasining bir turidir. Uchuvchisiz uchish apparatlaridan keng foydalanib boshlangan davlatlarni olib qarasak fuqarolik sektorida tijorat korxonalar va jismoniy shaxslar tomonidan qo’llaniladi, harbiy sanoat rivojlangan ba’zi davlatlarda esa armiyasi va huquqni muhofaza qilish organlari aviatsiyasi komplekslarining bir qismidir[3].

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida to’g’risida”gi 2022-yil 15-noyabrda 658-son qaroriga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi hududida uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarining belgilangan tartibda majburiy deklaratsiya qilinadigan tranzitidan tashqari (8802200001, 8802200002, 8802200008, 8803100000, 8803200000 TN VED kodlari) ularni qonunga xilof ravishda olib kirish, sotish, sotib olish, saqlash yoki ulardan foydalanish taqiqlanadi[4]. O’zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi huzuridagi Kadastr agentligining “Geoinnovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi, “Chorvoq” erkin turistik zonasi direksiyasi, Yunesko ishlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tomonidan uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini olib kirish, sotish, sotib olish, saqlash va foydalanish holatlari bundan mustasno.

Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari bilan tegishli vazirliklar, idoralar va xo’jalik sub’ektlariga uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot



qismlarini olib kirish, sotish, sotib olish, saqlash va ulardan foydalanish uchun ruxsatnomalar berilishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining bunday ruxsati mavjud bo'lgan taqdirda, ariza beruvchi UUAlar bilan jihozlangan radioelektron vositalardan foydalanish uchun vakolatli organdan (Mininfokom) belgilangan tartibda ruxsat olishi shart.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha ruxsatnomalar mavjud bo'lgan taqdirda, ariza beruvchi UUA ni ro'yxatdan o'tkazish va undan foydalanishga ruxsat olish uchun "O'zaviatsiya" agentligiga ariza berishi shart.

UUA ni ro'yxatdan o'tkazib, undan foydalanishga ruxsat olgandan so'ng, arizachi O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanishning yagona boshqaruv tizimi organlaridan ruxsatnomaga ega bo'lsa, UUA ni boshqarishni boshlashi mumkin.

Ushbu talablar samolyot modellari va samolyotlarning o'yinchoq modellariga taalluqli emas.

Samolyot o'yinchoqlari modellaridan yuqoridagi tartib-qoidalar va havo bo'shlig'iga ruxsatnomalarsiz foydalanish mumkin.

Samolyot o'yinchoq modellarining parvozlari 50 metrgacha balandlikda, aerodromga yaqinlashish yo'laklaridan 150 metrdan yaqin bo'lmagan masofada, odamlardan xavfsiz masofada va havo kemasi bilan vizual aloqada bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar, sport, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, texnik ijodkorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan havo kemalari maketlarining (samolyot modellarining) parvozlari O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanish to'g'risidagi nizomga muvofiq faqat havo kemalarining maxsus parvoz zonalarida amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar, sport, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, texnik ijodkorlikni rivojlantirish uchun mo'ljallangan havo kemalari maketlarining (samolyot modellarining) parvozlari O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanish to'g'risidagi nizomga muvofiq faqat havo kemalarining maxsus parvoz zonalarida amalga oshiriladi.

Chet ellik sayyohlar tomonidan talabning ortishi bilan bog'liq va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari va kirish turizmini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 658-son qaroriga muvofiq, Respublikaning turizm salohiyati to'g'risida foto va videomateriallar tayyorlash uchun xorijiy ijodiy guruhlariga uchuvchisiz uchadigan apparatlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtincha olib kirish, saqlash va ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining iltimosnomasiga asosan, Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi tomonidan beriladi.



O'zbekiston hududida uchuvchisiz uchuvchisiz uchish apparatlari ruxsatnomalarni berishning bunday soddalashtirilgan tartibi xorijiy fuqaroning O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligiga yoki "O'zaviatsiya" agentligining elektron platformasi orqali vaqtincha olib kirish va undan foydalanishga ruxsat olish uchun rasmiy ariza bilan murojaat etishini nazarda tutadi.

Bugungi kunda "Xorijiy ijodiy kompaniyalar tomonidan uchuvchisiz uchish apparatlarini Respublika hududiga vaqtincha olib kirish va ulardan foydalanish uchun vazirlik va idoralarning arizalarini topshirish va muvofiqlashtirish uchun Yagona idoralararo elektron platforma" Axborot tizimi test rejimida ishlamoqda va tizim imkoniyatlari bilan tanishish uchun mo'ljallangan.

Hozirgi paytda Vazirlar Mahkamasining fuqarolik aviatsiyasidagi alohida qarorlari bilan UUALardan foydalanish bo'yicha 1-ILOVAda ko'rsatib o'tilgan bir qator tashkilotlar ruxsat olishgan.

UUAdan O'zbekiston Respublikasi havo hududidan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. UUAni boshqarayotgan operatorida UUAni boshqarish sertifikatini mavjud bo'lishi.

2. Havo hududidan foydalanish uchun buyurtmanoma pochta aloqa vositalari orqali yoki elektron shaklda parvozlar amalga oshiriladigan kun arafasida UTC vaqti bilan soat 09:00 dan (mahalliy vaqt bilan 14:00) kechiktirmay topshirilishi kerak. Buyurtmanomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- parvoz amalga oshiriladigan sana;
- ariza beruvchining nomi;
- uchuvchisiz uchadigan apparat modeli va ro'yxatdan o'tkazish belgisi;
- parvozning boshlanish va tugash vaqti (UTC);
- parvozni amalga oshirish hududi (koordinatalari), (o'ziga xos mahalliy yo'nalishlar) yo'nalishi va ulardan uzoqlashishi;
- uchish balandligi (metrda va futda);
- parvoz maqsadi (ish turi), ishlarni bajarish uchun ruxsatnomaning mavjudligi (aerofotosuratga olish, turar joy ustidan parvoz va boshqalar);
- uchuvchisiz uchadigan apparat operatorining F.I.O.;
- eslatmada — uchuvchisiz uchadigan apparatlar soni, uchuvchisiz uchadigan apparat operatorining telefon raqami, shuningdek, parvozni ta'minlash uchun barcha har qanday qo'shimcha ma'lumotlar.

3. Ariza beruvchiga va O'zbekiston Respublikasi IIOning hududiy navbatchilik qismiga buyurtmanomani tasdiqlash, shuningdek, cheklovlarni joriy qilish yoki buyurtmanomani bekor qilish to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi hududida parvozlarni amalga oshirishda UUAning havo hududidan foydalanish bo'yicha ariza beruvchining havo hududidan foydalanishning yagona boshqaruv tizimi organlari bilan o'zaro hamkorligi tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga muvofiq telefon (faks) yoki elektron pochta orqali tasdiqlangan buyurtmanoma yuboriladi.



O'zbekiston Respublikasida UUALardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha normativ xuquqiy xujjatlar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi -

2444-modda. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish[5]

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, — uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;
- b) shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanib;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;
- g) badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- b) halokatga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlarni sodir etgan shaxs, agar u uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

2481-modda. Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish[6]

Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash, ulardan foydalanish yoki ularni boshqa shaxslarga berish tartibini buzish, shuningdek ulardan boshqa maqsadlarda foydalanish, —

uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan;
- b) mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa;
- g) badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, — uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar odam o'lishiga sabab bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- b) halokatga;



v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —
sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xulosa

O'zbekiston hududida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish bo'yicha amaldagi tartiblar davlat va milliy xavfsizlik, jamoat tartibi hamda havo hududidan foydalanish xavfsizligini ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mamlakatda uchuvchisiz uchish apparatlarilarni olib kirish, saqlash va ulardan foydalanishni ruxsat berish asosida tartibga solish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda, bu esa ularning noqonuniy qo'llanishi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Jinoyat kodeksida UUAlardan noqonuniy foydalanish bo'yicha qat'iy javobgarlik choralarining belgilanishi mazkur sohada huquqbuzarliklarni oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, UUA texnologiyalarining tez sur'atda rivojlanayotgani normativ-huquqiy bazani muntazam yangilab borishni talab etadi. Shu bois, UUA bilan bog'liq tartiblarni yanada soddalashtirish, ruxsat berish jarayonini raqamlashtirish va xavfsizlik tamoyillarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, dronlardan oqilona va qonuniy foydalanish mamlakatning axborot, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish sohalarida katta imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Uchuvchisiz_uchish_apparati
2. <https://izoh.uz/word/dron>
3. Xujaev Botir Tavakkalovich. (2023). UChUVChISIZ UChISH APPARATLARINING QO'LLANILISHI. V International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (T. 6, Vypusk 06, ss. 1–5). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10015467>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida to'g'risida"gi 2022-yil 15-noyabrdagi 658-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.